



**Mavzu: ” BOLALARDA SAN’AT ASARLARI ORQALI ESTETIK
DIDNI TARBIYALASH.”**

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika insituti

Ilmiy rahbar :Kamolova.I.X.

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi Misirova Nafisa.

Anotatsiya: Ushbu maqola bolalarda estetik didni shakllantirishda san’atning o’rni va ahamiyati. Estetika va san’at tushunchalarining maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida tutgan o’rni to’g’risida ma’lumot va xulosalar berilgan.

Kalit so’zlar: San’at, estetika, did, maktabgacha yoshdagi bolalar, ta’lim va tarbiya, estetik tarbiya, go’zallik, ijodkorlik, san’at turlari.

Inson dunyoga kelar ekan, go’zallik (estetika) tushunchasi bilan yonma-yon ulg’ayadi, voyaga yetadi. Bolalarni estetik didli, ma’naviy pok etib tarbiyalash jamiyatning bosh vazifasidir. Xo’sh estetik did nima o’zi?

Estetika –go’zallikdir. Go’zallik-tabiat va jamiyatdagi narsa va hodislarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch va zavq,erkinlik tuyg’ulari hosil etishga qodir bo’lgan xususiyatlarni ifodalaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida bolalarning estetik dunyoqarashini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Estetik did insonning go’zallikni anglash, baholash va yaratish qobiliyatidir. Bolalik davrida shakllangan estetik qarashlar shaxsning butun hayotiga ta’sir ko’rsatadi. Estetik tarbiya – bu shaxsda go’zallikni his qilish, tushunish va yaratish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. U axloqiy, aqliy va ma’naviy tarbiya bilan uzviy bog’liqdir.



Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, tarbiya – hayot-mamot masalasidir. Estetik tarbiya esa inson qalbini poklaydi, didini o'stiradi.

Estetik tarbiya vazifalari:

- Go'zallikni idrok etishga o'rgatish;
- San'at asarlarini tushunish ko'nikmasini shakllantirish;
- Ijodkorlikni rivojlantirish;
- Nafosat hissini kuchaytirish.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarda tasavvur kuchli, hissiyot tez shakllanadi. Ular rang, ohang va obrazlarni tez qabul qiladi.

Bu yoshda ranglarga qiziqish yuqori, taqlidchanlik kuchli, badiiy asarlarga nisbatan hissiyotlar ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli estetik tarbiya erta yoshdan boshlanishi lozim.

Go'zallik bola ruhuyati, qalbi va ma'naviyati bilan bog'liq tushunchadir. Go'zallik manbayi esa qalbdir.

Go'zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Birinchisi inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yuzaga kelgan go'zallik bo'lsa, ikkinchisi inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga keladigan go'zallikdir. Birinchisida aql, ruh, hissiyot ustuvor bo'lsa, ikkinchisida makon va zamon salmoqli o'rin egallaydi. Estetika yunoncha so'z bo'lib, olamning hissiy qabul qilinishini organuvchi fandır.

Estetika nafosat, did, go'zallik, hunuklik, ulug'vorlik, mo'jizaviylik, hayolilik, kabi kategoriyalar bilan ish ko'radi.

Estetika haqida so'z borar ekan, estetik did tushunchasi kelib chiqadi.



Did-hayot va san'atning barcha sohalarida insonning estetik yodisalarini farqlash, tushunish va baholash qobiliyati.

Estetik did- bu narsalardagi go'zallik va xunuklikni ajrata olish qobiliyati, ularni to'g'ri baholash, idrok etish va undan zavqlanish tuyg'usidir. Bu esa insonning ma'naviy darajasi va tarbiyasini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy barcha go'zallik hayot va insonda, ayni vaqtda, barcha hunuklik va nopoklik ham insonda deb biladi. Shuning uchun ham inson tarbiyasiga katta ahamiyat beradi.

Estetik tarbiya — bu shaxsda go'zallikni idrok etish, his qilish, baholash va yaratish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. U bolaning hissiy, aqliy va ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiya orqali bola atrof-muhitdagi go'zallikni ko'ra oladi, uni qadrlaydi va o'z faoliyatida aks ettira boshlaydi.

Estetika fan sifatida qadimdan inson tafakkurining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy san'atni inson ruhiy kamolotining vositasi deb hisoblagan. Uning fikricha, musiqa va san'at inson qalbini poklaydi va uni ezgulikka yetaklaydi.

Yevropa falsafasida Immanuel Kant estetik bahoni “manfaatdan xoli zavq” sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, go'zallikni idrok etish insonning ichki ruhiy holati bilan bog'liq.

O'zbek pedagogikasida Abdulla Avloniy estetik tarbiyani shaxs tarbiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatgan. U yosh avlodni go'zallik ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining omili ekanini ta'kidlagan. Estetika yunoncha so'z bo'lib, olamning hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fandır. A.Baumgarten (1714-1776) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanilgan.



Pedagogika estetikaning “Go’zallik hayot demakdir” degan qoidasidan kelib chiqib, yosh avlodga hayotdagi, turmushdagi kishilar munosabatidagi go’zallikda qatnashtirish, uning hayotni, san’atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o’zining bosh vazifasi deb biladi. Shu sababdan bola tug’ulganidanoq unda estetik didni shakllantirish nafaqat oila a’zolarining, balki jamiyatning oldiga qo’yilgan buyuk maqsadlardan bo’lishi shart va zarur. Estetik tarbiya esa san’at orqali shakllanadi. San’at o’zining hissiy ta’sir kuchi bilan kishining faqat hissini emas, fikr va irodasini ham maftun etadi. Tarbiyachi pedagogning roli ham aynan mana shunda. Shuning uchun ham san’at estetik tarbiyaning mazmuni va vositasidir. Fransuz faylasuflaridan biri Shopenhauer “San’atning asl manosi go’zallikdir” deganida naqadar haq.

Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarishdan ko’ra , ushbu jarayonni insonning o’zi tashkil etmog’i kerakligi qayta qayta-qayta aytilmoqda. Ushbu jarayonda san’at shaxsning his tuyg’ulariga ta’sir ko’rsatishga qodir bo’lgan muhim vosita sifatida peshqadamlikda davom etmoqda. Shuning uchun ham san’at barcha davrlarda ham tarbiya oldida o’z mahobatini yo’qotmagan. Maktabgacha yosh – estetik rivojlanishning muhim bosqichidir.

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) bola rivojlanishining eng sezgir davri hisoblanadi. Bu davrda:

hissiy sezgirlik yuqori bo’ladi;

rang va shakllarni tez idrok etadi;

musiqaga nisbatan ta’sirchanlik kuchli bo’ladi;

fantaziya va tasavvur keng rivojlanadi.



psixolog L. Vigotiskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniy omillar muhim rol o'ynashini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, bola san'at vositalari orqali jamiyatning estetik tajribasini o'zlashtiradi.

Shuningdek, J.Piaje maktabgacha yoshdagi bolalarda obrazli tafakkur ustun bo'lishini ta'kidlaydi. Shu sababli ular abstrakt tushunchalardan ko'ra tasvir, rang, ohang va obrazlar orqali bilimni tezroq qabul qiladi.

Demak, aynan maktabgacha yosh estetik didni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida estetik tarbiyaning quyidagi vazifalari mavjud:

- Bolalarda go'zallikni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish.
- San'at asarlarini tushunish va baholash ko'nikmasini shakllantirish.
- Estetik his-tuyg'ularni boyitish.
- Ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish.
- Nafosatli muhitga ehtiyojni shakllantirishdan iborat.

Estetik tarbiya orqali bolalarda estetik baholash ko'nikmasi oshadi, bolaning nutqi, tafakkuri va axloqiy qarashlari rivojlanadi rang va ohangni farqlash yaxshilanadi, ijodiy ishlar sifati ko'tariladi.. Yani go'zallikni anglaydi. Go'zallikni his qilgan bola odatda nozik didli, mehribon va sezgir bo'lib ulg'ayadi. Bunga esa san'at asarlari orqali erishiladi: rasm, musiqa, adabiyot, teatr va xalq amaliy san'ati va boshqalar.. Erta yoshdan boshlab tasviriy san'at, musiqa va adabiyot bilan muntazam shug'ullanish shaxsning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yosh davrida bolada hissiy sezgirlik yuqori bo'ladi, rang va shakllarni tez idrok etadi, musiqaga nisbatan ta'sirchanlik kuchli bo'ladi, fantaziya va tasavvur keng rivojlanadi.



Psixolog L. Vigotiskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniy omillar muhim rol o'ynashini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, bola san'at vositalari orqali jamiyatning estetik tajribasini o'zlashtiradi.

Agar bu jarayon to'g'ri yo'naltirilsa, bola kelajakda, san'atni tushunadigan, ma'naviy boy, nozik didli, ijodkor shaxs bo'lib shakllanadi. Abu Nasr Forobiy san'at, ayniqsa musiqa inson ruhiyatini tarbiyalovchi kuch ekanligini ta'kidlagan. U musiqaning nafaqat zavq bag'ishlashini, balki insonning axloqiy va ruhiy kamolotiga xizmat qilishini ilmiy asoslagan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didini shakllantirish uchun quyidagi ishlar olib borilishi kerak:

1. Tasviriy faoliyatni tashkil etish: rasm chizish, bo'yash, loydan shakllar yasash, ranglarni ajratish va uyg'unlashtirishga o'rgatish, erkin ijodiy mashg'ulotlar tashkil etish.

2. Musiqa orqali estetik tarbiya: bolalar qo'shiqlarini tinglash va kuylash, ritmik harakatlar va raqs mashqlari, turli ohanglar kayfiyatini tushuntirish.

3. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish:

ertak va she'rlar o'qib berish, qahramonlarning ijobiy xatti-harakatlarini muhokama qilish, ifodali nutqni rivojlantirish.

4. Atrof-muhit go'zalligini kuzatish: tabiat qo'ynida sayr qilish, fasllar o'zgarishini kuzatishgullarga, daraxtlarga e'tibor qaratish.

5. O'yinlar orqali estetik didni rivojlantirish : rolli o'yinlar (do'kon, mehmon, teatr), qo'g'irchoq teatrlari.

Qurilish kublari bilan chiroyli shakllar yasash

6. Guruh xonasini estetik bezash: rang-barang burchaklar tashkil etish, bolalar ishlaridan ko'rgazma qilish, tozalik va tartibga o'rgatish.



7. San'at tadbirlarini o'tkazish bayramlar va sahna ko'rinishlari, mini ko'rgazmalar, musiqa va rasm haftalıkları. Bu kabi ishlar bolalarda go'zallikni his qilish, chiroyli narsalarni ajratish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, san'at asarlari bolalarda estetik didni tarbiyalashning samarali vositasidir. Ular bolalarning go'zallikni his etish, ijodkorlik, tasavvur va didini rivojlantiradi. Shu sababli bolalar tarbiyasida san'atga keng o'rin berish, ularni turli san'at turlari bilan tanishtirish muhim vazifalardan biridir. Avvalo, san'at asarlari bolalarning tasavvurini kengaytiradi. Rasm, musiqa, haykaltaroshlik yoki adabiy asarlar bilan tanishgan bola atrof-muhitni yanada chuqurroq idrok etadi. Masalan, rang-barang tasviriy san'at asarlari bolalarga ranglarning uyg'unligini his qilishni o'rgatadi. Musiqiy asarlar esa ohangdorlik, ritm va kayfiyatni anglashga yordam beradi. Natijada bolada go'zallikka nisbatan sezgirlik paydo bo'ladi.

1) Bundan tashqari, san'at asarlari bolalarda ijodkorlikni rivojlantiradi. Bola ko'rgan yoki eshitgan asari ta'sirida o'zi ham rasm chizishga, qo'shiq kuylashga yoki hikoya tuzishga harakat qiladi. Bu jarayon estetik didni mustahkamlaydi. Chunki bola o'z ishini baholashni, chiroyli va uyg'un shakllarni tanlashni o'rganadi. Shu orqali u go'zallik mezonlarini asta-sekin egallaydi. Shu o'rinda ayniqsa badiiy san'at turidan foydalanish ayniqsa muhim va samaralidir. Ma'naviy-axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, tarbiyalanuvchilarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalanish lozim.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

1. Hikoya tarbiyalanuvning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Hikoyaning qisqa, emotsional, tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo'rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta'minlaydi.



3. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

4. Hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi.

Estetik tarbiyada kattalarning roli ham muhimdir. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarni turli san'at asarlari bilan tanishtirishi, ular haqida suhbatlar o'tkazishi kerak. Masalan, rasmni tomosha qilgach, boladan undagi ranglar, qahramonlar yoki kayfiyat haqida so'rash mumkin. Bu usul bolalarning fikrlashini rivojlantirib, estetik baholash, san'at o'zining hissiy ta'sir kuchi bilan kishining faqatgina hissini emas, fikr va irodasini ham maftun etadi.

San'at inson uchun estetik zavq-shavq manbai. Inson hayotiga go'zallik baxsh eta oladigan qudratli qurol. Bu quroldan yosh avlodni qancha erta habardor etsak, shuncha maqsadimizga, yani mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nau mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashga erishamiz.

Shaxsni estetik hamda badiiy jihatdan tarbiyalash nihoyatda murakkab va serqirra jarayondir. Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan ijobiy ishlarning barchasi ana shunday maqsadga, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limiga qaratilgan bir qator dasturlar, masalan, "Ilk qadam" o'quv dasturi, "Ilm yo'li" variativ dasturi, maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yilgan "Davlat talablari" joriy etilgan va dasturi amal bolib xizmat qilmoqda. Bu dastur va qonunlar, ta'lim oluvchida estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, ma'daniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida



yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalash, bugungi kunning zaruriy talabi ekanligidan dalolat beradi. Bunga esa san'at orqali erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari. 2018-yil.

2."Estetika" Abdulla Sher, Bahodir Husanov. 2010-yil

3."Maktabgacha pedagogika" F.Qodirova.2019-yil

4."Umumiy pedagogika" B.Xodjayev